



QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

## XIZMATLAR SOHASI STATISTIKA BO'LIMI



2023- YIL  
YANVAR-IYUN

*Dastlabki ma'lumotlar*

# Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari<sup>1)</sup>

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-iyundagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8913,6** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (**112,3** %) o'sish sur'ati **108,0** % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)**

**O'sish sur'ati (%) da)**

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinnlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati.</b>	<b>8913,6</b>	<b>100,0</b>	<b>108,0</b>
Shahar va tumanlar			
Qarshi shahar	2262,8	25,4	109,9
Shahrisabz shahar	385,9	4,3	109,7
G'uzor tumani	314,7	3,5	107,8
Dehqonobod tumani	264,8	3,0	105,7
Qamashi tumani	535,4	6,0	106,6
Qarshi tumani	540,4	6,1	107,2
Koson tumani	634,8	7,1	107,9
Kitob tumani	618,0	6,9	108,1
Mirishkor tumani	424,6	4,8	106,2
Muborak tumani	582,0	6,6	106,1
Nishon tumani	359,7	4,0	106,8
Kasbi tumani	389,2	4,4	107,4
Ko'kdala tumani	135,7	1,5	105,4
Chiroqchi tumani	402,6	4,5	106,6
Shahrisabz tumani	561,7	6,3	107,4
Yakkabog' tumani	501,3	5,6	109,0

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2022-2023- yillardan yanvar-iyun)



**2023- yil yanvar-iyun** oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2547,5** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)


Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati.	2547,5	105,6
Qarshi shahar	7781,4	107,5
Shahrisabz shahar	2654,4	107,9
G'uzor tumani	1440,9	105,3
Dehqonobod tumani	1686,8	103,6
Qamashi tumani	1857,6	104,3
Qarshi tumani	2024,9	104,8
Koson tumani	2072,5	105,3
Kitob tumani	2227,8	106,1
Mirishkor tumani	3335,3	103,9
Muborak tumani	6319,0	104,5
Nishon tumani	2199,7	104,5
Kasbi tumani	1859,5	105,2
Ko'kdala tumani	735,6	101,7
Chiroqchi tumani	1535,3	104,3
Shahrisabz tumani	2424,4	105,7
Yakkabog' tumani	1803,3	106,7

# Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>8 913,6</b>	<b>100,0</b>	<b>108,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	452,5	5,1	123,6
Moliyaviy xizmatlar	1 554,5	17,4	110,7
Transport xizmatlari	1 839,6	20,6	101,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 774,8	19,9	103,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	287,4	3,2	109,5
Savdo xizmatlari	2 720,5	30,5	103,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	222,4	2,5	106,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	415,8	4,7	141,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	127,7	1,4	107,3
Ijara xizmatlari	187,1	2,1	95,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	298,6	3,4	105,9
Shaxsiy xizmatlar	317,0	3,6	105,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	131,9	1,5	127,5
Boshqa xizmatlar	358,6	4,0	121,0

## Moliyaviy xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi 990,2 mlrd. so'mga oshib, 1554,5 mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 17,4 foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 110,7 % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **88,7 %** ni tashkil etdi.

#### Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

**88,7%**

#### Sug'urta bo'yicha xizmatlar

**7,3 %**

#### Yordamchi moliyaviy faoliyat

**4,0 %**



Moliyaviy xizmatlarning umumiyligi hajmida Qarshi shahrining ulushi 32,7 foizni yoki **508,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Nishon tumanida yuqori o'sish sur'ati **123,5%** ni tashkil etdi.

# Transport xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)


**2023- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 1839,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.**



**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1000** birlikni, yoki ularning umumiyligi sonining **2,9 %** ini tashkil etdi. Ulardan **985** birlik (**98,5 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Transport xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun)



# Hududlar kesimida transport ko'rsatkichlari

## (2023- yil yanvar-iyun)



	mlrd. so'mda	% da
<b>Qashqadaryo vil.</b>	<b>1839,6</b>	<b>101,3</b>
Qarshi sh.	247,9	112,2
Shahrisabz sh.	96,8	101,5
G'uzor	89,4	104,7
Dehqonobod	61,3	101,7
Qamashi	121,4	104,2
Qarshi	176,8	102,6
Koson	145,5	100,8
Kitob	119,0	100,4
Mirishkor	150,7	103,6
Muborak	123,7	81,3
Nishon	95,6	101,2
Kasbi	90,9	99,1
Ko'kdala	35,8	103,3
Chiroqchi	85,2	107,3
Shahrisabz	87,9	106,8
<b>Yakkabog'</b>	<b>111,7</b>	<b>118,7</b>

**2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan Yakkabog' tumani transport xizmatlari hajmi **29,5** mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **111,7** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **118,7 %** ni tashkil etgan.

Muborak tumanida ushbu ko'rsatkich **9,2** mlrd. so'mga kamaydi. Bunda mazkur xizmatlarning o'sish sur'ati **81,3 %** ni tashkil etdi.




## Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

**2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 400,6 mlrd. so'mga oshib, 2720,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.**

**2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati 103,6 % ga yetdi.**



**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.




**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **48,5 %** yoki **10665** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,7 foizi** (**10630** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)



**2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 452,5 mlrd. soʻmdan iborat boʼlib, oʼtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsish surʼati 123,6 % ni tashkil etdi.**

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʼrsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʼindisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga koʼra “Axborot va aloqa” faoliyati bilan shugʼullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **413** birlikka yetdi, shundan **406** birligi (umumiylar sonining **98,3 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y.

(2023- yil yanvar-iyun, % da)

2023- y.

94,7

Telekommunikatsiya xizmatlari

95,1

2,9

Kompyuterda dasturlashtirish boʼyicha xizmatlar

2,5

0,7

Axborot xizmatlari

0,8

1,7

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

1,6

# Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyun)


Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo vil.	<b>452,5</b>	<b>100,0</b>	<b>123,6</b>
Qarshi sh.	<b>55,8</b>	<b>12,3</b>	<b>124,2</b>
Shahrisabz sh.	<b>19,8</b>	<b>4,4</b>	<b>96,3</b>
G'uzor	<b>27,6</b>	<b>6,1</b>	<b>107,3</b>
Dehqonobod	<b>19,8</b>	<b>4,4</b>	<b>105,6</b>
Qamashi	<b>29,9</b>	<b>6,6</b>	<b>109,9</b>
Qarshi	<b>32,0</b>	<b>7,1</b>	<b>123,7</b>
Koson	<b>30,8</b>	<b>6,8</b>	<b>112,8</b>
Kitob	<b>34,2</b>	<b>7,6</b>	<b>101,8</b>
Mirishkor	<b>17,7</b>	<b>3,9</b>	<b>113,6</b>
Muborak	<b>13,5</b>	<b>3,0</b>	<b>112,8</b>
Nishon	<b>22,3</b>	<b>4,9</b>	<b>113,8</b>
Kasbi	<b>21,5</b>	<b>4,8</b>	<b>105,9</b>
Ko'kdala	<b>1,5</b>	<b>0,3</b>	<b>124,6</b>
Chiroqchi	<b>60,8</b>	<b>13,4</b>	<b>116,2</b>
Shahrisabz	<b>28,9</b>	<b>6,4</b>	<b>105,2</b>
Yakkabog'	<b>36,4</b>	<b>8,0</b>	<b>110,1</b>

**2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan Qarshi shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **11,6** mlrd. so'mga oshib, ko'rib chiqilayotgan davrda **55,8** mlrd. so'mga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **12,3 %** ni tashkil etdi.

Ko'kdala tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Ta'lif sohasidagi xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)



**2023- yil yanvar-**

iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **415,8** mld. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **141,3 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **68,4 %**ni tashkil etdi.

**"Ta'lif" seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'lifni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam məktəb tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lif, shuningdek, kattalar uchun ta'lif (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lif sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.


**Ta'lif sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Ta'lif sohasi xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyun oylaridagi** ulushi **4,7 %** ni tashkil etdi. **Ma'lumot uchun:** 2022/2023- o'quv yili boshidagi oliy ta'lif muassasalari soni **9** birlikni tashkil etdi.

# Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)



**2023- yil yanvar-iyun**

oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **127,7mlrd. so'mni** yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **789** birlikni tashkil etdi, shundan **653** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)

**2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **166,4** mlrd. so'mga oshib, **287,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.**




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1728** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1716** birligi (umumiylashtirilgan **99,3** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

**Yashash va  
ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar tarkibi  
(2023- yil yanvar-iyun)**




## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **222,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiylajmida ularning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,5 %** ni tashkil etgan.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

### Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi




## Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

**2023- yilning yanvar-iyun** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **131,9** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiyligi hajmidagi ulushi esa **1,5 %** ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **127,5 %** ni tashkil etdi.



### Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

Qarshi sh 102,1

Shahrisabz sh 2,0

G'uzor 1,0

Qamashi 6,0

Qarshi 4,6

Koson 5,3

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Kitob 5,8

Muborak 0,1

Nishon 0,9

Kasbi 0,6

Ko'kdala 0,3


Chiroqchi 0,8

Shahrisabz 1,9


Yakkabog' 0,5

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

# Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)




## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun)



**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalarini (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'rurvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

## Ijara xizmatlari (2019-2023- yillar yanvar-iyun)

**2019- yilning yanvar-iyuniga** nisbatan o'rgani-  
layotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **75,6** mlrd.  
so'mga oshib, **187,1** mlrd.  
so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi  
**2,1 %** ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob- uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyun** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **82,7%** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdarligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kaiyuntiradi, vaqtini tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

